

«LoanId»-sonli ONLAYN MIKROQARZ SHARTNOMASI

Toshkent shahri

«Date»y.

“TBC CREDIT” MChJ MMT nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Bosh direktor B. Abibullayev, bundan keyin “MMT” deb ataladi, hamda jismoniy shaxs «FullName», bundan keyin “Qarz oluvchi” deb ataladi (JSHSHIR: «PersonalNumber»), O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, ikkinchi tomondan, birgalikda “Tomonlar” deb atalib, quyidagilar haqida ushbu onlayn mikroqarz shartnomasini (bundan keyin “Shartnoma” deb yuritiladi) tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Shartnoma shartlariga ko‘ra, MMT Qarz oluvchiga ariza/so‘roviga muvofiq hamda MMT tomonidan ma‘qullangan miqdorda onlayn mikroqarz ajratadi, Qarz oluvchi esa MMTga olingan summani to‘liq qaytarish va ushbu shartnoma shartlariga, Mobil Ilovada joylashtirilgan “TBC Credit” MChJ MMT mikromoliyaviy xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlarga muvofiq (bundan buyon matnda “BSh” deb ataladi) muvofiq undan foydalanganlik uchun foizlarni to‘lash majburiyatini oladi.
- 1.2. Mazkur shartnoma BShning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 1.3. Ushbu Shartnomada qo‘llaniladigan atamalar va ta‘riflar BShda ko‘rsatilgan.

2. SHARTLAR VA TO‘LOVLAR

- 2.1. Onlayn mikroqarz quyidagi shartlar asosida beriladi:
 - 2.1.1. Onlayn mikroqarz summasi: «Amount» («AmountInWords») so‘m;
 - 2.1.2. Onlayn mikroqarz muddati: «TermInMonths» oy/kun;
 - 2.1.3. Onlayn mikroqarz valyutasi: O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi;
 - 2.1.4. Onlayn mikroqarz berish muddati - MMT tomonidan ariza ma‘qullangandan so‘ng 10 ish kunidan oshmasligi kerak;
 - 2.1.5. Taqdim etish shakli: naqd pulsiz o‘tkazish.
 - 2.1.6. Taqdim etish usuli: O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tgan bank tomonidan chiqarilgan bank kartasiga MMTning ixtiyoriga ko‘ra, ilovalarning mavjud funksiyalariga muvofiq – “TBC Bank” ATBda ochilgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga yoki Qarz oluvchining bank kartasiga o‘tkazish.
- Uchinchi shaxslarning to‘lov tizimlari yoki mobil ilovalari orqali onlayn mikroqarz berilgan taqdirda: shuningdek, boshqa banklar tomonidan chiqarilgan bank kartalariga.

- 2.1.7. Mikroqarni qaytarish tartibi: Mobil Ilovada ko'rsatilgan annuitet usulida hisoblangan jadvalga muvofiq.
- 2.2. Foiz to'lovlari:
- 2.2.1. asosiy qarz qoldig'iga hisoblangan: yillik «Interest» %;
- 2.2.2. Muddati o'tgan asosiy qarz qoldig'iga oshirilgan foiz: yillik «PenaltyRateModifier» %;
- 2.3. Ushbu bilan Qarz oluvchi MMTga O'zbekiston Respublikasining istalgan banklarida ochilgan barcha hisobvaraqlari va bank kartalaridan (shu jumladan oldin biriktirilgan, keyinchalik Mobil Ilovadan o'chirilgan) MMTga to'lanishi lozim bo'lgan summalarini, jumladan MMT tomonidan Qarz oluvchiga xatolik bilan o'tkazilgan pul mablag'larini avtomat yechib olishga rozilik beradi.
- 2.4. Mikroqarzni qaytarish sanasi MMT tomonidan avtomat tarzda belgilanadi va Qarz oluvchiga Mobil Ilova interfeysida ma'lum qilinadi.
- 2.5. Shartnoma amal qilish muddati davomida Qarz oluvchi onlayn mikroqarz olish uchun ariza topshirish vaqtida Mobil Ilovaga qo'shilgan (yoki biriktirilgan), shu jumladan onlayn mikroqarz ajratish yoki skoring o'tkazish uchun foydalanilgan bank kartalarini Mobil Ilovadan bekor qilmaslik/o'chirmaslik majburiyatini oladi.
- 2.6. Bunda, agar ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchi o'zining ish haqi yoki asosiy daromadi o'tkaziladigan yangi bank kartasiga o'zgartirsa/almashtirsa /imitatsiya qilsa, Qarz oluvchi ushbu kartani darhol Mobil Ilovaga qo'shish (biriktirish) majburiyatini oladi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 3.1. MMT huquqlari:
- 3.1.1. Zarur hollarda Qarz oluvchidan foydalanilgan onlayn mikroqarz mablag'lari to'g'risida ma'lumot so'rash, shu jumladan sarflangan onlayn mikroqarz mablag'larining maqsadlari va sabablari to'g'risida og'zaki/yozma tushuntirish olish.
- 3.1.2. MMT quyidagi hollarda Qarz oluvchidan onlayn mikroqarzni muddatidan oldin (hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda) qaytarishni talab qilishga haqli:
- 3.1.2.1. Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnoma va BSh bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning buzilishi, bajarilmasligi va/yoki lozim darajada bajarilmasligi;
- 3.1.2.2. onlayn mikroqarz bo'yicha asosiy qarz, foizlar, ushbu Shartnoma va BSh shartlaridan kelib chiqadigan boshqa to'lovlarni o'z vaqtida qaytarmaslik;
- 3.1.2.3. BSh va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.
- 3.1.3. quyidagi holatlardan biri yuz bergan va davom etayotgan taqdirda, Qarz oluvchidan onlayn mikroqarz summasini va boshqa tegishli to'lovlarni

kechiktirmasdan, muddatidan oldin qaytarishni talab qilish:

- 3.1.3.1. Qarz oluvchining mazkur Shartnomadan tashqari boshqa biron-bir kredit qarzdorligi bo'yicha majburiyatlari bajarilmasa;
- 3.1.3.2. davlat organlari Qarz oluvchining mol-mulkini yoki boshqa aktivlarini musodara qilish, milliylashtirish yoki boshqa usullar bilan barcha yoki har qanday muhim qismini ekspropriatsiya qilish yoki Qarz oluvchining mol-mulkini/boshqa aktivlarini saqlash yoki nazorat qilish yoki Qarz oluvchining onlayn mikroqarz bo'yicha qarzdorligini to'lashga to'sqinlik qiladigan har qanday xatti-harakatlarni amalga oshirganda;
- 3.1.3.3. Qarz oluvchiga yoki u bilan qandaydir tarzda bog'liq bo'lgan uchinchi shaxslarga nisbatan jinoiy yoki fuqarolik ishlari bo'yicha da'volar qo'zg'atilgan yoki ish yuritilayotgan bo'lsa, agar bu Qarz oluvchining to'lov qobiliyatiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan hollarda.
- 3.1.3.4. MMTda ushbu shartnoma doirasida olingan pul mablag'laridan MMTning firibgarlikka qarshi kurashish bo'yicha ichki siyosati va tamoyillariga muvofiq foydalanish/tasarruf etish yuzasidan shubhalar mavjud bo'lgan hollarda.
- 3.1.4. Qarz oluvchini xabardor qilmasdan o'z mablag'lari hisobidan onlayn mikroqarzning qaytarilmaslik xavfini o'z ixtiyoriga ko'ra sug'urta qilish.
- 3.1.5. ushbu Shartnomaning 2.3-bandida ko'rsatilgan Qarz oluvchining roziligi asosida banklarda ochilgan barcha hisobvaraqlar va bank kartalaridan avtomat ravishda quyidagilarni hisobdan chiqarish:
 - 3.1.5.1. To'lovlar jadvaliga muvofiq mikroqarzni qaytarish kunidagi asosiy qarz va u bo'yicha foizlar summasi;
 - 3.1.5.2. Muddati o'tgan asosiy qarz uchun hisoblangan foizlar summasi, muddati o'tgan foizlar summasi, muddati o'tgan asosiy qarz summasi.
- 3.1.6. Ushbu Shartnoma shartlari va Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni Kredit byurosiga va Kredit axborotining davlat reyestriga taqdim etish.
- 3.1.7. Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish yoki qo'shimcha identifikatsiyalash (shaxsni tasdiqlash) jarayonini amalga oshirish uchun BShda ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali Qarz oluvchi bilan bog'lanish.
- 3.2. MMT majburiyatlari:
 - 3.2.1. Qarz oluvchiga MMT tomonidan ma'qullangan summa doirasida onlayn mikroqarz berish.
 - 3.2.2. To'lovlar haqida xabar berish uchun BShda ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalanish.

- 3.3. Qarz oluvchi huquqlari:
- 3.3.1. Qarzdorlik va onlayn mikroqarzni qaytarish shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni BShda ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali olish.
 - 3.3.2. Onlayn mikroqarz bo'yicha qarzdorlikni to'liq yoki qisman hamda istalgan vaqtda, shuningdek, MMT tomonidan jarima sanksiyalarini undirmasdan muddatidan oldin to'lash.
 - 3.3.3. Shartnoma tuzilgandan so'ng pul mablag'lari olingunga qadar bo'lgan davrda onlayn mikroqarz olishdan bepul asosda voz kechish.
- 3.4. Qarz oluvchi majburiyatlari:
- 3.4.1. Ushbu Shartnoma va BSh shartlarida ko'zda tutilgan to'lovlarni to'lov jadvaliga muvofiq o'z vaqtida amalga oshirish.
 - 3.4.2. Olingan onlayn mikroqarzni qaytarish va onlayn mikroqarzdin foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni hamda MMTdan ushbu Shartnoma va BSh shartlariga muvofiq muddatidan oldin qaytarish to'g'risida talabnoma olinganda boshqa to'lovlarni to'lash.
 - 3.4.3. 3 kalendar kun ichida masofaviy aloqa kanallari orqali va/yoki bevosita MMT ro'yxatga olingan manzilga tashrif buyurish yo'li bilan, BShda belgilangan tartibda va usulda, BSh doirasida ushbu Shartnomani tuzishda taqdim etilgan pasport va boshqa ma'lumotlari, shu jumladan: mobil telefon raqami, ish telefoni, ro'yxatga olingan manzili, yashash joyi, ish joyi (daromad olish manbai), familiyasi yoki ismi va Qarz oluvchining ushbu Shartnoma va BSh bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar o'zgarganligi to'g'risida MMTga xabar berish.

4. MIKROQARZNI QAYTARISH TARTIBI

- 4.1. Shartnoma bo'yicha foizlar har kuni asosiy qarz qoldig'iga hisoblanadi. Foizlarni hisoblash uchun yiliga 365 kun deb hisoblash usuli qo'llaniladi.
- 4.2. Asosiy qarzning muddati o'tgan qismi uchun foiz stavkasi muddati o'tgan birinchi kundan boshlab onlayn mikroqarzning muddati o'tgan qismi to'liq qaytarilgunga qadar hisoblanadi. Asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarz uchun foizlar ushbu shartnomaning 2.2.2-bandida belgilangan stavka bo'yicha hisoblanadi.
- 4.3. Agar qarzni to'lash bo'yicha har qanday to'lov kuni bank ishlamaydigan kunga to'g'ri kelsa, to'lov bank ishlamaydigan kundan keyingi bank ish kuniga ko'chiriladi.
- 4.4. Avtomat ravishda to'lov yechish xizmati Qarz oluvchi onlayn mikroqarzni olgan vaqtdan boshlab MMT tomonidan faollashtiriladi, bunda Qarz oluvchi ushbu xizmatni MMTdan ixtiyoriy ravishda olishga rozilik beradi va tasdiqlaydi.
- 4.5. Qarz oluvchi MMT tomonidan onlayn mikroqarz bo'yicha to'lovlarni Qarz oluvchiga tegishli bank kartalaridan, shuningdek, Qarz oluvchining O'zbekiston Respublikasining barcha bankida yangi ochilgan bank kartalaridan so'zsiz hisobdan chiqarilishiga rozilik

beradi.

- 4.6. Ushbu Shartnoma bo'yicha qarzidorlik undirilishi MMT tomonidan quyidagi tartibda avtomat ravishda hisobdan chiqarish orqali amalga oshiriladi:
 - 4.6.1. Asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzidorlik, muddati o'tgan foiz to'lovlari va muddati o'tgan asosiy qarz bo'yicha oshirilgan foiz to'lovlari;
 - 4.6.2. joriy davr uchun hisoblangan foizlar;
 - 4.6.3. joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzidorlik;
 - 4.6.4. hisoblangan jarimalar;
 - 4.6.5. hisoblangan penya;
 - 4.6.6. MMTning qarzidorlikni to'lash bilan bog'liq boshqa xarajatlari.
- 4.7. Qarz oluvchi ilova interfeysida onlayn mikroqarzni "muddatidan oldin to'lash"ni tanlagan holda, MMT tomonidan ushbu to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi:
 - 4.7.1. hisoblangan foizlarning to'lov kunidagi qoldig'i;
 - 4.7.2. asosiy qarz summasining qoldig'i.
- 4.8. Bunda dastlabki jadval qayta hisoblab chiqiladi, bunda asosiy qarzni muddatidan oldin to'langan qismi jadval bo'yicha keyingi to'lovlar hisobiga hisobga olinadi va kredit shartnomasi muddati tugagunga qadar asosiy qarz qoldig'i annuitet usulida hisob-kitobga kiritilgan sanagacha faqat hisoblangan foizlar to'lanadi.
- 4.9. Qarz oluvchi ilova interfeysida onlayn mikroqarzni "jadval bo'yicha" so'ndirishni yoki qarzni uchinchi shaxslarning to'lov xizmatlari orqali qaytarishni tanlagan taqdirda, mablag'lar maxsus hisob raqamiga kelib tushadi va jadval bo'yicha qaytarish kunigacha hisob raqamida qoladi. Grafik bo'yicha qaytarish kunida mablag'lar avtomat ravishda hisobdan chiqariladi va grafik bo'yicha kreditni qaytarishga yo'naltiriladi.
 - 4.9.1. Agar birinchi hisobdan chiqarilgandan so'ng hisobvaraqa mablag'lar qolsa, bunday mablag'lar avtomatik ravishda jadvalda nazarda tutilgan miqdorda va muddatlarda hisobdan chiqariladi.
 - 4.9.2. Agar hisobvaraqa mablag'lar qolsa va Qarz oluvchi muddatidan oldin so'ndirishni amalga oshirsa, ushbu mablag'lar birinchi navbatda so'ndirishga yo'naltiriladi.
 - 4.9.3. Agar muddatidan oldin so'ndirishda hisobvaraqdagi mablag'lar qoldig'i Qarz oluvchining qarzi miqdoridan ko'p bo'lsa, kredit to'liq muddatidan oldin so'ndirilgandan so'ng hisobvaraqa qolgan mablag'lar Qarz oluvchining joriy hisobvarag'iga, jismoniy yoki virtual kartasiga qaytariladi.

5. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 5.1. MMT ushbu Shartnoma bo'yicha to'lanmagan mablag'larni qaytarishni, barcha hisoblangan foizlar va boshqa qo'shimcha talablarni to'lashni, shuningdek, Qarz oluvchining ish haqi, Qarz oluvchining boshqa pul mablag'lari va uning boshqa likvid

- mol-mulki hisobidan Qarz oluvchi tomonidan MMTga yetkazilgan barcha zararlar va ziyonlarni Qarz oluvchi tomonidan qoplanishini talab qilishga haqli.
- 5.2. Qarz oluvchining onlayn mikroqarz mablag'laridan foydalanishi bilan bog'liq barcha harakatlar uchun Qarz oluvchining o'zi javobgar bo'ladi.
 - 5.3. Onlayn mikroqarz berish bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki o'z vaqtida bajarilmagan taqdirda, MMT Qarz oluvchiga bunday qoidabuzarlik sodir etilgan vaqtda O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi miqdorida bir martalik jarima to'lashi shart.
 - 5.4. Qarz oluvchi tomonidan onlayn mikroqarzni qaytarish bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi kechiktirilgan taqdirda, MMT Qarz oluvchidan «FixedPenalty» («FixedPenaltyInWords») so'm miqdorida jarima undirishga haqli.
 - 5.5. Ushbu Shartnomadan yoki u bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolarni MMT va Qarz oluvchi ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan hal qilishga intiladi.
 - 5.6. Agar yuzaga kelgan nizo murosasiz yo'li bilan hal etilmasa, ushbu nizo:
 - javobgar ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi sud tartibida;
 - MMT ro'yxatdan o'tgan joyda sud tartibida;
 - shuningdek, MMT o'z xohishiga ko'ra fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha Uchtepa tumanlararo sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha Shayxontohur tumanlararo sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha Yakkasaroy tumanlararo sudiga murojaat qilish huquqiga ega;
 - yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda notarial ijro xatini olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Qarz notarial ijro xatini olish yo'li bilan undirilganda Qarz oluvchi notarial ijro xatining haqiqiylikini so'zsiz tan oladi.
 - 5.7. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan MMT va Qarz oluvchining javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qo'llaniladi.
 - 5.8. Ushbu Shartnoma va BShda nazarda tutilmagan hollarda, MMT va Qarz oluvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

6. BOSHQA SHARTLAR

- 6.1. Ushbu orqali Qarz oluvchi MMTga quyidagi xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun so'zsiz huquq va rozilik beradi:
 - 6.1.1. Qarz oluvchining ushbu shartnomada, shuningdek, MMT ma'lumotlar bazasida va/yoki Kredit byurosi (bundan keyin "Byuro" deb yuritiladi) ma'lumotlar bazalarida saqlanayotgan ma'lumotlariga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar va nizomlar asosida kreditga layoqatlilikni baholash maqsadida ishlov berish. Qarz oluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan huquqlardan xabardor. Unga ko'ra, Qarz oluvchining so'roviga binoan Ma'lumotlarni qayta ishlovchi to'liq bo'lmagan,

noaniq, eskirgan yoki noqonuniy ravishda olingan va qayta ishlangan ma'lumotlarni to'g'rilashi, yangilashi, qo'shishi, bloklashi, o'chirishi yoki yo'q qilishi shart. Ushbu bir martalik rozilik majburiyatlar bajarilgunga qadar yoki shartnoma muddati tugagunga qadar amal qiladi.

- 6.1.2. Shuningdek, skoring modellarini qo'llash orqali Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini baholash jarayonida, MMT Qarz oluvchi haqidagi erkin/ochiq foydalanishdagi har qanday ma'lumotdan, hamda bunday turdagi xizmat ko'rsatuvchilardan olingan ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega, agar ushbu ma'lumotlarni olish va ulardan foydalanish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmasa.
- 6.1.3. Qarz oluvchining ushbu Shartnoma va BSh bo'yicha majburiyatlarini bajarish masalasi yuzasidan telefon raqamlariga, ijtimoiy tarmoqlarga qo'ng'iroq qilish va ularni yozib olish, shuningdek, MMTga ma'lum bo'lgan Qarz oluvchining manzillariga (rekvizitlariga) xatlar, elektron va SMS xabarlar yuborish;
- 6.1.4. Qarz oluvchining ushbu Shartnoma va BSh bo'yicha majburiyatlarini bajarish masalasi yuzasidan Qarz oluvchi bilan muzokaralar (uchrashuvlar) o'tkazish;
- 6.2. Bank operatsiyani amalga oshirish jarayonida Qarz oluvchi tomonidan masofaviy aloqa kanallari orqali qilingan tasdiqlar bosma hujjatdagi yozma imzo bilan bir xil yuridik ahamiyatga ega.
- 6.3. Tomonlar raqamli shaklda tuzilgan hujjatlar Qarz oluvchi tomonidan imzolangan bosma hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligiga rozilik bildiradilar. Binobarin, raqamli shaklda tuzilgan hujjat tomonlar o'rtasida nizo kelib chiqishi uchun dastlabki shart bo'la olmaydi.
- 6.4. Onlayn mikroqarz berish to'g'risidagi shartnoma ushbu Shartnomaning 2.1.6-bandiga muvofiq summalar o'tkazilgan vaqtdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.
- 6.5. Onlayn mikroqarzni qaytarish jadvali qayta rasmiylashtirilgan taqdirda, ilgari amal qilgan mikroqarzni qaytarish jadvali bunday qayta rasmiylashtirish sanasidan boshlab o'z kuchini yo'qotadi.

Ariza – buyurtma
Jismoniy shaxsning kreditini to'lashga

MCHJ MMT “TBC CREDIT”

Men, «FullName» pasport ma'lumotlarim: «PersonalNumber», Sizdan Toshkent shahridagi “TBC Bank” ATBga ushbu ariza-buyurtma bilan murojaat qilishingizni so'rayman “TBC Bank” ATBda ochilgan hisobvarag'imdani, MFO 01180, «OriginalAccountCurrentDue» («OriginalAccountCurrentDueInWords») so'mni («OriginalAccountCurrentDueInWords») mening “TBC Bank” ATBda ochilgan, MFO: 01180, «FullName» «OriginalAccountAccountNumber» - sonli kredit hisob raqamimga o'tkazishingizni so'rayman.

To'lovni amalga oshirish uchun:

«OriginalAccountAgreementDate» dagi «OriginalAccountId» sonli Kredit shartnomasi bo'yicha to'lov «OriginalAccountCurrentDue» so'm, «FullName» (FIO).

Tasdiqlayman «FullName»